

DOR AL -ARQAM ISLOMNING BIRINCHI TA'LIMOT MASKANI

Muhamatova Gulshoda

Buxoro davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Dor al-Arqamning Islom tarixidagi o'рни, uning ilk musulmonlar uchun ta'lim va tarbiya maskani sifatidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, mazkur markazda olib borilgan diniy-ma'rifiy faoliyat, yashirin da'vat davridagi vazifalari hamda musulmon jamoasining shakllanishidagi roli tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Dor al-Arqam, Makka davri, ilk musulmonlar, Islom ta'limoti, da'vat, sahobalar, Qur'on ta'limi.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль Dor al-Arqam в истории ислама как первого образовательного и просветительского центра мусульман. Анализируется его значение в период тайного призыва, деятельность по обучению первых мусульман и вклад в формирование мусульманской общины.*

Ключевые слова: *Дар аль-Аркам, мекканский период, первые мусульмане, исламское образование, призыв, сподвижники, обучение Корану.*

Annotation: *This article examines the role of Dar al-Arqam as the first educational and missionary center in the history of Islam. It analyzes the importance of this institution during the period of secret propagation of Islam, its educational activities among the first Muslims, and its contribution to the formation of the early Muslim community. The article also highlights the spiritual, moral, and intellectual training provided in Dar al-Arqam and its significance in the development of Islamic educational traditions.*

Keywords: *Dar al-Arqam, Meccan period, early Muslims, Islamic education, da'wah, companions, Qur'anic teaching.*

KIRISH

Islom dini insoniyat tarixida nafaqat diniy e'tiqod tizimi, balki ilm-ma'rifatga asoslangan tamaddun sifatida ham muhim o'rin egallaydi. Islomning ilk davrlaridanoq ilm olish, ta'lim berish va insonni ma'naviy tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu jihatdan qaralganda, Dor al-Arqam Islom tarixidagi dastlabki ta'lim maskani sifatida katta ahamiyatga ega.

Mazkur maskan Makka shahrida Al-Arqam ibn Abi al-Arqamning uyida tashkil etilgan bo'lib, dastlabki musulmonlar aynan shu yerda yig'ilib, Muhammaddan Qur'on oyatlari va Islom ta'limotlarini o'rganganlar. Mushriklarning bosimi kuchli bo'lgan bir davrda Dor al-Arqam musulmonlar uchun xavfsiz boshpana, ilm markazi va ma'naviy tarbiya maskaniga aylangan.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi

Milodiy VII asrning boshlarida Makka shahrida yuz bergan tarixiy voqealar insoniyat tarixini butunlay o'zgartirdi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ga vahiy kelgan dastlabki

yillarda yangi din - Islom dini eng og'ir sinovlarga duchor bo'ldi. Qurayshdagi kuchli qabilalar yangi e'tiqodni bo'g'moqchi, mo'minlarni esa ezib yo'q qilmoqchi edi.

Aynan shu qiyin paytda bir yosh sahobaning uyida islomning birinchi maktabi - Dorul Arqam faoliyatini boshladi. Bu uy shunchaki to'rt devordan iborat bino emas. U bir vaqtning o'zida birinchi masjid, birinchi maktab va birinchi islom kengashxonasi bo'ldi. Dorul Arqam devorlarida o'rganilgan ilm va kuchaygan iymon keyinchalik butun dunyoga tarqaldi. Arqam ibn Abi al-Arqam Quraysh qabilasining nufuzli Maxzum urug'idan edi. U islomni atigi 12-16 yoshida qabul qildi. Islomni qabul qilganlar orasida oltinchi yoki yettinchi o'rinda turadi deb hisoblanadi. Uning bu yoshda shunday ulkan qaror qilganligi o'z-o'zida katta jasorat edi, chunki o'sha paytda islomni qabul qilish hayotdan mahrum bo'lish xavfini tug'dirardi. Arqam bu uyni butun islom jamoasiga bag'ishladi va o'z shaxsiy mulkidan kechdi, eshiklarini barcha mo'minlarga ochdi. Bu yosh sahobaning fidokarligi islom tarixida alohida sahifani tashkil etadi va u «Islom uyi» nomi bilan tarixda abadiy qoldi. Bu uyda mo'min bandalar Allohning Kitobini o'rgandilar, Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam rahbarligi ostida iymonlarini mustahkamladilar va birodarlik rishtalari bog'ladilar. Bu uy islom nurining tarqalgan birinchi maktab va madrasa bo'ldi.

Dorul Arqam Makka shahrining Safa tog'i yonida, tor ko'chada joylashgan edi. Bu joy tasodifiy tanlanmagan. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning chuqur donoligi bilan puxta o'ylangan strategik qaror natijasida aynan shu uy tanlangan. Joylashuvning har bir jihati muhim ahamiyatga ega edi. Yashirin kirib-chiqish, tor ko'cha ichkaridan to'liq nazorat qilinishi mumkin edi. Kimdir kelayotganini oldindan ko'rish va zarur hollarda yashirinish imkoni bor edi. Uy egasining maqomi: Arqam Maxzum qabilasidan bo'lgani uchun mushriklarga ham u «O'z odami» bo'lib ko'rinardi. Bu uyga shubha bilan qarashni qiyinlashtirdi.

Tadqiqot natijalari va muhokamalari

Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam va Abu Bakr kabi mashhur shaxslarning uylariga nisbatan bu uy kamroq e'tiborni tortardi. Uy bir guruh odamlarni sig'dira oladigan bo'lib, ta'lim, ibodat va maslahat uchun yetarli maydon bor edi. Payg'ambar (s.a.v.) o'zi ustoz sifatida dars berdi, sahobalar esa uning birinchi shogirdlari bo'ldilar. Bu yerda amalga oshirilgan ta'lim tizimi keyinchalik butun islom dunyosida rivojlangan madrasalar va ilm markazlarining poydevori bo'ldi. Yangi nozil bo'lgan oyatlar darhol sahobalariga yetkazildi, yod oldirilib, chuqur ma'nosi tushuntirildi. Har bir oyat sinchiklab o'rganildi va amalga qo'llanildi. Bu islomiy ta'limning eng asosiy an'anasining boshlanishi edi. Makka ko'chalarida ochiqdan-ochiq namoz o'qish hayotiy xavf tug'dirgan bir paytda, Dorul Arqam xavfsiz va muqaddas ibodatgohga aylandi. Mominlar shu yerda jamoa bo'lib namoz o'qidilar, ruhlari mustahkamlandi. Muhim qarorlar, shaxsiy muammolar va jamoat ishlari shu yerda hal qilindi. Payg'ambar har bir savolga javob berdi, yo'l ko'rsatdi, sahobalarning ruhiy ahvolini kuzatdi. Islomga kirgan yangi mo'minlar eng avval shu uyga olib kelinar, ularga islomning asoslari o'rgatildilar. Uydan chiqishda ular yanada mustahkam imon va bilim sohibi bo'lishardi. 610-yilda Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga Hiro g'orida birinchi vahiy keldi. Islom yashirincha yoyila boshladi va dastlabki mo'minlar soni asta-sekin ko'paydi. 613-yilda Dorul Arqam islom jamoatining asosiy markaziga aylandi. Da'vatning yashirin bosqichi rasmiy tus oldi, Payg'ambarimiz

Muhammad (s.a.v) muntazam ravishda sahobalarini bu yerda o'rgata boshladi. 615-yilda Hamza ibn Abdul Muttalib-Payg'ambarimizning amakisi va Makkaning eng kuchli jangchilaridan biri — aynan shu uyda islomni qabul qildi. Bu voqea butun jamoaga ulkan kuch berdi. 616-yilda Umar ibn al-Xattob Dorul Arqam eshigidan kirib, islomni qabul qildi. Bu tarixiy voqea musulmonlar uchun burilish nuqtasiga aylandi. 616-yilda mo'minlar soni 40 nafarga yetdi. Shundan so'ng ular birinchi marta Ka'ba maydonchasida ochiqdan-ochiq jamoa bo'lib namoz o'qidilar. 622-yilda Madinaga hijrat boshlandi. Dorul Arqam o'z asosiy vazifasini tugatdi. Madinada qurilgan Masjid an-Nabaviy yangi ilm va ibodat markaziga aylandi. Dorul Arqam tarixidagi eng hayajonli va dramatik lahza -Umar ibn al-Xattobning islomni qabul qilishidir. Umar (r.a) Qurayshdagi eng qo'rqmas va kuchli kishilardan biri bo'lib, u islomning ashaddiy dushmani hisoblangan. Uning salobatidan hatto kuchli sahobalar ham cho'chishar edi. Rivoyatlarga ko'ra, Umar singlisi va uning erining uyida Qur'on oyatlarini eshitib, ularga mahliyo bo'ldi. Yuragida kutilmagan o'zgarishni his etib, u to'g'ridan-to'g'ri Dorul Arqamga - Payg'ambarimiz (s.a.v)ning huzuriga yo'l oldi. Umarning islomni qabul qilishi Dorul Arqam tarixidagi eng muhim voqealardan biri bo'ldi. Shundan so'ng musulmonlar jamoasi yanada kuchaydi va birinchi marta Ka'ba maydonchasida ochiq ibodatga chiqdi. Bu islomning yangi bosqichiga o'tganligining ramzi edi. Bu yerda shakllangan ta'lim tizimi - ustoz va shogird munosabati, nazariy va amaliy bilimlarning uyg'unligi keyinchalik butun islom olamiga tarqaldi va madrasalar tizimining asosiga aylandi. Dorul Arqamda o'qigan sahobalar - Hamza, Umar, Ammar ibn Yasir, Suhayb ar-Rumiy va boshqalar keyinchalik Madina va boshqa shaharlarga ketib, o'rganganlarini o'zgalarga yetkazdi. Bir kichik xonadagi ta'lim halqasi insoniyat tarixidagi eng katta ma'naviy o'zgarishning boshlanishiga aylandi. Arqam (r.a.) uyni avlodlariga sotilmaslik sharti bilan meros qoldirdi. Keyingi asrlarda uy «Dorul Xayzuron» deb ataldi va islom ziyoratchilarining muqaddas maskani sifatida saqlanib qoldi. Zamonaviy qurilish ishlari davrida uy buzib tashlandi va hozir Masjid al-Haromning kengaytirilgan hududi doirasida qoldi. Yosh Arqamning fidokarligi, Payg'ambarimizning donoligi va ilk mo'minlarning iymoni - bularning barchasi birlashib, insoniyat tarixining yo'nalishini o'zgartirdi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Dor al-Arqam Islom tarixidagi eng muhim maskanlardan biri hisoblanadi. U musulmonlarning ilk ilm va tarbiya markazi sifatida diniy-ma'rifiy faoliyatning shakllanishiga asos soldi. Aynan shu yerda Qur'on ta'limi, aqidaviy tarbiya va musulmon jamoasining dastlabki asoslari vujudga kelgan. Shu sababli Dor al-Arqam Islom ta'limoti tarixining boshlanish nuqtalaridan biri sifatida katta tarixiy va ma'naviy ahamiyatga ega

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ар-Рахик аль-Махтум. Сафиюрахмон Муборакфурий. Ар-Рахик аль-Махтум. Риёд: Даруссалом, 1979.

2. Сийрат ибн Хишам. Ибн Хишом. Ас-Сира ан-Набавия. Байрут: Дар аль-Кутуб аль-Ильмийя, 2001.



- 3.Тарикс ар-русул валь-мулук. Мухаммад ибн Джарир ат-Табарий. Тарикс ар-русул валь-мулук. Байрут: Дар ат-Турот, 1967.
4. Аль-Бидая ван-Нихая. Ибн Касир. Аль-Бидая ван-Нихая. Байрут: Мактабат аль-Маариф, 1990.
- 5.Фикх ас-Сира. Мухаммад аль-Газзолий. Фикх ас-Сира. Дамашк: Дар аль-Калам, 1998.
- 6.Нур аль-Якин фи Сират Сайид аль-Мурсалин. Мухаммад аль-Судари. Нур аль-Якин фи Сират Сайид аль-Мурсалин. Кохира: аль-Мактаба ат-Тиджория аль-Кубро, 1964.